

“MEHNATSEVARLIK” KONSEPTINI IFODALAYDIGAN O‘ZBEK VA INGLIZ XALQ MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARIDAGI FARQLI VA O‘XSHASH JIHATLARI

Amirqulova Umida Normo‘minovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Xorijiy tillar kafedrasи ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotation

Ushbu maqolada “mehnatsevarlik” konseptini ifodalaydigan o‘zbek va ingliz xalq maqollari lingvomadaniy obyekt sifatida tanlab olinib, ularning lingvomadaniy xususiyatlaridagi farqli va o‘xhash jihatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: mehnatsevarlik konsepti, maqol, lingvomadaniy obyekt, lingvomadaniy xususiyat, umumiy va xususiy jihatlar, halollik, rohat, milliy hudud, milliy taomlar.

Annotation

In this article, Uzbek and English folk proverbs expressing the diligence concept are selected as linguocultural objects, and their differences and similarities in their linguocultural characteristics are analyzed.

Key words: The diligence concept, proverb, linguocultural object, linguocultural characteristic, general and specific aspects, honesty, pleasure, national territory, national dishes.

Maqollarning ma’no doirasi juda keng bo‘lgani uchun jamiyatning har bir sohasida qo‘llashimiz mumkin. Bu borada ingliz va o‘zbek xalq maqollari ma’no jihatdan ham, qo‘llash jihatidan ham bir-biriga juda yaqin hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek tilidagi maqollarni hajm jihatdan o‘rganib borish natijasida aynan mehnatsevarlik haqidagi maqollarning ko‘proq uchrashiga guvoh bo‘ldik. Buning ko‘plab sabablari bor. Misol uchun, mehnat qilib obro‘ topish, o‘z ehtiyojlarini qoplay bilish kabi masalalar nafaqat qadim zamonlarda, balki bugungi kunda ham o‘z isbotini topmoqda. Har qanday yutuqning zaminida qattiq mehnat, tirishqoqlik va kuchli istak yotadi. Mehnat qilish va mehnatsevar inson bo‘lish masalalariga ingliz va o‘zbek xalqi tomonidan jiddiy qaralishi o‘zbek va ingliz xalq maqollarida o‘z aksini topadi. “Mehnatsevarlik” konseptini ifodalagan o‘zbek va ingliz xalq

maqollarining lingvomadaniy xususiyatlaridagi o‘xshash jihatlarini quyidagi maqollar misolida ko‘rishimiz mumkin:

Ikkala xalq milliy mentalitetida ham halollik va halol mehnat qilish doimo ulug‘lanadi, chunki halol mehnat bilan topilgan boylik, pul, osh-u non kishiga huzur-halovat va yaxshilik keltiradi va buning isbotini 3.3.1-jadvalda keltirilgan maqollar misolida ko‘rishimiz mumkin:

3.3.1-jadval.

“Halol mehnatni ifodalaydigan maqollar”.

No	Inglizcha maqollar:	O‘zbekcha tarjimasi:	O‘zbekcha maqollar:
1.	Honesty is the best policy.	Halollik eng yaxshi siyosat.	Halol mehnat – yaxshi odat, berur senga saodat.
2.	It is no shame at all to work for money.	Halol mehnatning aybi yo‘q.	Halol mehnatning aybi yo‘q.
3.	There is no disgrace in honest labour.	Halol mehnatda ayb yo‘q.	Halol ishla, halol tishla.
4.	Honesty lasts longest.	Halollik mangu yashaydi.	Og‘zingni ko‘kka ochma, halol mehnatdan qochma.
5.	Honesty is the soul of business.	Halollik biznesning ruhi.	Halol mehnat –lazzatli yemish.
6.	Honest labour dispels melancholy.	Halol mehnat g‘amginlikni yo‘qotadi.	Halol mehnat harom tomoqdan qutqazadi.
7.	The first step toward greatness is to be honest.	Buyuklikka birinchi qadam halol bo‘lishdan boshlanadi.	Halol mehnat- huzur-halovat.
8.	Honest work is better than a mansion.	Halol mehnat dang‘illama uydan afzal.	Halol mehnat – mo‘l daromad.
9.	Honesty makes you rich but it works slowly.	Halollik sizni boy qiladi ammo bu sekin ishlaydi.	Mehnatingni halol qilsang, huzurini ko‘rasan.
10.	Honest produce honest hearts honest actions.	Halol yuraklar halol ishlarni bajaradi.	Halol mehnat yerda qolmas.

11.	A honest man is the noblest work of God.	Halol inson Xudoning eng ezgu asaridir.	Manglay tering bilan topilgan mol – taningga halol.
-----	--	---	---

Ishni o‘z vaqtida bajarish, bugungi ishni ertaga qoldirmaslik va barvaqt uyg‘onish kabi mehnatsevar insonga xos bo‘lgan fazilatlar ikkala xalq vakillariga ham xos universal xususiyatlar ekanligi hech kimga sir emas va buning isbotini 3.3.2- jadvalda keltirilgan maqollar misolida ko‘rishimiz mumkin:

3.3.2- jadval.

“Mehnatsevar inson vaqtini qadrlashini ifodalovchi maqollar”.

Nº	Inglizcha maqollar.	O‘zbekcha tarjimasi.	O‘zbekcha maqollar.
“Ishning omadi-o‘z vaqtி” ekanligini isbotlovchi maqollar:			
1.	Make hay while the sun shines.	Quyosh nur sochganda pichan tayyorlang.	Ishning omadi –o‘z vaqtி.
2.	Strike while the iron is hot.	Temirni qizig‘ida bos.	Ishni uyqusida bos.
3.	Time is the soul of business.	Siz doimo biznes uchrashuvlariga o‘z vaqtida kelishingiz kerak.	Ishning omadi –o‘z vaqtி.
4.	Punctuality is the soul of business.		
“Bugungi ishni ertaga qoldirmaslikni uqtiruvchi maqollar”			
5.	Do not put off for tomorrow what you can do today.	Bugun qila oladigan ishingizni ertaga qoldirmang.	Bugungi ishni ertaga qoldirma.
6.	Do not delay today’s work until tomorrow.	Bugungi ishni ertaga qoldirib, kechiktirmang.	Qolgan ishga qor yog‘ar.
7.	Do not leave to the morning the business of the evening.	Bugun qila oladigan ishingizni ertaga qoldirmang.	
8.	Never put off till tomorrow what you can do today.	Bugun qila oladigan ishingizni ertaga qoldirmang.	Bugungi ishni ertaga qoldirma.

9.	Hour today, one is worth two tomorrow.	Bugungi bir soat ertangi ikki soatga arziydi.	
“Barvaqt uyg‘ongan kishining bir ishi ortiq ekanligini anglatuvchi maqollar”			
10.	Early bird catches the worm.	Barvaqt uyg‘ongan qush qurtni tutadi.	Erta turgan kishining bir ishi ortiq.
11.	Go to bed with the lamb and rise with the lark.	Qo‘zichoq bilan baravar uxbab, to‘rg‘ay bilan baravar uyg‘onmoq.	Erta turgan ish bitirar, kech turgan ko‘p turtinar.

Mehnat insonlarni birlashtirishini ifodalovchi maqollar ikkala xalq maqollarida ham uchraydi. Chunki ikkala xalq milliy mentalitetida ham ahil bo‘lib ishslash mehnat jarayonini yengillashtirishi haqidagi qarashlar mavjud. va buning isbotini quyidagi maqollar misolida ham ko‘rishimiz mumkin: “It is easy to swim if another holds your head “[1] maqolining tarjimasi “Agar boshingizni birov ushlab tursa, suzish oson”. Bu maqol ma’jозиј ма’нода qо‘llangan bo‘lib, agar sizga kimdir ishingizda yordam va ko‘mak bersa, mehnatingiz osonlashadi deyilmoqda. Ingliz tilida maqolning quyidagi sinonimlari mavjud: “Many hands make light work” yoki “Many hands make work easy”, ya’ni “Qo‘llashib ko‘targan yuk yengillashar”. Bu maqoldagi “many hands – ko‘p qo‘l” so‘z birikmasi “ko‘pchilik”, “ko‘p odamlar” ma’nosini anglatib kelmoqda. O‘zbek tilida “It is easy to swim if another holds your head “ maqolning muqobili “Ahil ishlasang, ish bitar, har mushkul oson bo‘lar” maqolidir va maqol mohiyati juda chuqur bo‘lib, ahillikda har qanday qiyin mehnat ham osongina bajarilishi uqtirilgan.

Mehnatsevar inson doimo o‘z mehnati bilan yurtda obro‘ topib, el orasida o‘z hurmat-izzatiga ega ekanligini ifodalovchi maqollarning ikki tilda ham mavudligi bu tushunchalarining ikkala xalq madaniyatiga ham tegishli universal xususiyat ekanligidan darak beradi. “The workman is known by his work”[2] maqolining o‘zbekcha tarjimasi inson o‘z mehnati bilan taniqli va qadrlidir. Bu maqoldan anglashimiz mumkinki, inglizlar ham o‘zlarining mehnatsevar, tirishqoq, ishbilarmon va g‘ayratli kishilarini ulug‘laydilar va doimo e’tirof etadilar. Mazkur maqolning inglizcha sinonimlari ham mavjud: “A bird is known by its song”, “A tree is known by its fruit” va “A man is valued by his work, not his words”. Bu

maqollarning o‘zbekcha ekvivalentlari “Odamni ish tanitadi”, “Mehnatda sinalgan elda aziz”, “Er yigit nomi bilan, mehnatda shoni bilan” maqollaridir.

“Work sweetens the sleep” maqolini mehnat uyquni shirin qiladi deb tarjima qilishimiz mumkin va bu maqolni o‘z manosida qo‘llaganimizda, haqiqatdan ham kun bo‘yi mehnat qilgan kishi kechga borib horib, charchab rohatli uyquga ketishini va ko‘chma ma’noda esa har qanday zahmatli mehnatdan so‘ng dam olish yoqimli ekanligini anglashimiz mumkin. Bu maqolning inglizcha sinonimlari quyidagilar: “Business first, pleasure after”, “Business before pleasure”, “Rest is good after work is done”, “After the work is done, repose is sweet”. Bu maqolning o‘zbekcha ekvivalenti “Mehnat rohatga eltar” bo‘ladi va o‘zbek xalq maqollarida “rohat” leksemasi “yaxshi dam olish, yaxshi hordiq va mehnatdan zavqlanish” ma’nolarida keladi. Har ikkala tilda ham mehnat insonga yoqimli rohat hissini berishi ifodalangan va mehnatga nisbatan ijobiy qarash mavjud.

“Who works in sweat will eat with appetite” maqolida terlab qattiq ishlagan ishtaha bilan ovqatlanishi maqolning o‘z ma’nosini anglatsa, qattiq mehnat qilib topilgan narsa rohat bilan iste’mol qilinishi yoki foydalanilishi maqolning ko‘chma ma’nosini anglatadi. Bu maqolning o‘zbekcha muqobili “Ish ishtaha ochar, ishdan dangasa qochar”[3]. Ushbu maqollarning lingvomadaniyahamiyati shundaki, mehnatning inson sog‘lig‘iga foydasi, avvalo, mehnat qilish uning ishtahasiga yoki boringki, barcha narsalarni zavq bilan qabul qilishi va hayotdan lazzatlanishga sababchi bo‘lishi ikkala xalq milliy madaniyatiga ham xos hayotiy real holat hisoblanishidadir.

Mehnatsevar va tirishqoq inson albatta baxt-omadga va ulkan yutuqlarga erishishi mumkinligi ta’kidlovchi maqollar: Misol uchun, “Diligence is the mother of good luck”, “ Diligence is the mother of fortune” , “ Diligence is the mother of success”, “Diligence is the beginning of brilliance”, ” Diligence is mistress of success”, “Care and diligence bring luck”. Bu maqollar o‘zbek tiliga “Tirishqoqlik – omad onasi” deb tarjima qilinadi va ularga o‘zbek tilida ekvivalent maqollar mavjud: “Tirishqoq toshga mix qoqar ” va “Tirishganning teshasi toshga chega qoqar” maqollarida qattiq mehnat qilgan va tinim bilmasdan ishlagan odam har qanday mushkul vazifaning uddasidan chiqa olishi mumkinligi uqtirilgan. Ingлиз xalqi ham o‘zbeklar singari barcha omadning boshlanishi mehnat tufayli ekanligi yaxshi anglaydilar va bu ijobiy dunyoqarash ikkala xalq madaniyatidagi o‘xshashliklardan biri desak adashmagan bo‘lamiz.

Bundan tashqari mehnatsevarlik mavzusi borasida ikkala xalq milliy madaniyatida farqli jihatlar ham ko‘zga tashlanadi va ularni quyidagi maqollar misolida ko‘rshimiz mumkin:

Hayvonlar obrazlari orqali ifodalangan mehnatsevarlik haqidagi ingliz xalq maqollarida asosan, obrazlari orqali insonlarning mehnatga bo‘lgan munosabatlari yorqin **bo‘ri, ayiq, baliq, chumoli, mushuk, qushlar, asalari, qo‘zichoq** namoyon bo‘ladi, chunki Buyuk Britaniya hududi orol davlat hisoblanadi va mamlakatning katta qismida o‘rmonlar mavjud, shu sabab bo‘lsa kerak mehnatga doir ingliz xalq maqollarida o‘rmon va suv hayvonlari obrazlari ko‘proq uchraydi va ularni quyidagi maqollar misolida ko‘rshimiz mumkin: “All **cats** love **fish** but fear to wet their paws”, “Early **bird** catches the worm”, “Work like **an ant** and you’ll eat sugar”, “Who eat like **a wolf** and will work **a bear**”, “**A cat** in gloves catches no mice”, “**A bird** is known by its song”, “Go to bed with **the lamb** and rise with the lark”. “No **bees**, no honey; no work, no money”.

Mehnatsevarlikka doir o‘zbek xalq maqollarida esa asosan, **ot, it, taka, uloq, qoramol yoki mol, eshak** kabi hayvonlar obrazi uchraydi, chunki O‘zbekiston hududida yashovchi odamlar hayotida mazkur hayvonlar transport vositasi, oziq-ovqat, uy qorovuli va doimiy daromad manbayi sifatida alohida e’tibor beriladigan muhim hayvonlardir, shu sabab ham mehnatga doir o‘zbek xalq maqollarida ushbu hayvon obrazlari faol uchraydi va buning isbotini quyidagi maqollar misolida ko‘rshimiz mumkin: “Aravani **ot** tortar, ko‘lankasin –**it**”, “**Ot** oyog‘idan topar, odam – qo‘lidan”, “**Ot** surinmay yo‘l topmas, yigit urinmay mol topmast”, “Uxlagan uyqu olar, uxlamagan – **yilqi**”, “**Ot** topadi, **eshak** yeydi. “**Yo‘rg‘a otning** yo‘li bo‘lar, jo‘rtoqining sho‘ri bo‘lar”, “Sansolar-u mansolar, **otga** yemni kim solar”, “**It** yursa, so‘ngak topar”, “**Mol** boqqanning barmog‘idan moy tomar”, “**Mol** boqqanning moliga boq, boqmaganning — holiga”, “**Mol** semirsa, yog‘ bo‘lar, yer semirsa, bog‘ bo‘lar”, “Tog‘ **takasi** tek tursa, och qolar”, “**Uloqqa** bostirib bormasang, bosilib ketasan”[4].

Geografik joylashuv o‘rniga ko‘ra, mehnatsevarlikka oid ingliz xalq maqollarida, asosan, **o‘rmon va suvliklarni** ifodalovchi so‘zlarning ishtiroki yaqqol ko‘zga tashlanadi va yuqorida aytganimizdek Angliya hududi o‘rmonlar, dengiz va daryolardan iboratdir va buning isbotini quyidagi maqollar misolida ko‘rshimiz mumkin: “All cats love **fish** but fear **to wet** their paws”, “He who would search for **pearls** must **dive below**”, “It is easy **to swim** if another holds your head”

maqollaridagi “fish-baliq, to wet- ho‘llamoq, dive- sho‘ng‘imoq, swim-suzmoq, pearl-marvarid,dur” so‘zлari orqali daryo va dengiz kabi suvliklarni, “Who eat like a **wolf** and will work a **bear**” maqolidagi “a wolf-bo‘ri, bear-ayiq” so‘zлari orqali o‘rmon nazarda tutilganligini anglab olishimiz mumkin.

O‘zbekiston hududida esa suvliklar kam, ammo **tog‘lar, dalalar va cho‘llar**, qolaversa, **mevazor bog‘lar** ko‘proq bo‘lganligi uchun **tog‘, qir, cho‘l va qo‘riq yer, bog‘** so‘zлari qatnashgan mehnatsevarlikka doir o‘zbek xalq maqollari anchagina serobdir va buning isboti sifatida quyidagi maqollarni misol qilishimiz mumkin: “Do‘lanani ko‘rganda **tog‘** esingdan chiqmasin”, “Jon kuydirmasang, jonona qayda, **toqqa** chiqmasang, do‘lona qayda”, “Mehnat qilsang, ko‘ksing **tog‘**, hurmat qilsang, diling **bog‘**”, “Qaziybersang, **tog‘ ham qular**”, “Qimirlagan qir oshar, tig‘izlagan **tog‘ oshar**”, “**Tog‘** takasi tek tursa, och qolar”, “**Bog‘** jamoli — bog‘bondan”, “Bo‘lsa hamki **qo‘riq yer**, hosil berar, to‘ksang ter”, “Boqimsiz **bog‘ tog‘** bo‘lur, yurak-bag‘ring dog‘ bo‘lur”, “Qarasang — **bog‘man**, qaramasang — dog‘man”, “Boqsang — **bog‘**, boqmasang — **tog‘**”, “Odam qo‘li **cho‘lni** bo‘ston qilar”, “Yalqov bo‘lsa o‘g‘loning, yerdan non termas, abjir bo‘lsa o‘g‘loning, **cho‘ldan** don terar”.

Ikkala xalq madaniyatida ham o‘z hududida is’temol qiladigan go‘sht mahsulotlari nomlarida katta farq borligini mehnatsevarlikka doir maqollar misolida ko‘rishimiz mumkin. Ingliz xalqining asosiy go‘shtli taomlari baliq mahsuloti bilan tayyorlansa: “All cats love **fish** but fear to wet their paws”, o‘zbek xalqi esa o‘zlarining milliy taomlarini so‘qim, ya’ni semirtirilgan mol go‘shtisiz tasavvur qilolmaydilar: “Ishlagan – **so‘qim** yer, ishlagagan – to‘qim yer”.

Ikkala xalq milliy oshxonasida ham bu xalqlarning milliy taomlarini anglatgan so‘zlarning mehnatsevarlikni ulug‘lovchi maqollar tarkibida kelishida sezilarli farqlar bor va buni quyidagi maqollar misolida ko‘rishimiz mumkin. Ingliz xalq maqollarida “**cake-tort, biskvit**”, “**sugar-shakar**”, “**dinner-tushlik**”, “**food-oziq-ovqat**” so‘zлari uchrasa: “There is no **cake** without work”, “There is no **dinner** without work”, “The best words give no **food**”, “Work like an ant and you’ll eat **sugar**”, o‘zbek xalq maqollarida esa non, osh, qand, asal, moy, yog‘ so‘zлari keng uchraydi va bunday maqollar inglizlarnikiga qaraganda son jihatidan ko‘proq: “Yalqov bo‘lsa o‘g‘loning, yerdan **non** termas, abjir bo‘lsa o‘g‘loning, **cho‘ldan** don terar”, “Qarasang, **qand** yersan, qaramasang, pand yersan”, “Oq qo‘l — **osh** egasi, kuch qo‘l — ish egasi”, “Kishining qo‘lidan ishini olsang, og‘zidan **oshini** olasan”,



“Ishlaganning og‘zi **oshga** tegar, ishlamaganning og‘zi toshga tegar”, “Ishdan qochding — **oshdan** qochding”, “Ishchan **oshini** yer, dangasa – boshini”, “**Non** yemoqchi bo‘lsang, o‘tin tashishdan erinma”, “Ish bor yerda **osh** bor”, “Mehnatning **noni** – shirin, yalqovning – joni”, “Mehnat qilib topganing, **qand-u asal** totganing”, “Mol boqqanning barmog‘idan **moy** tomor”, “Yurti boyning o‘zi boy, mehnat qilganning qo‘li **moy**”, “Mehnat qilgan **moy** oshar”.

Xulosa qilib aytganda, mehnatsevarlikni ulug‘lovchi ingliz va o‘zbek xalq maqollarining lingvomadaniy xususiyatlaridagi o‘zaro o‘xhash jihatlarini ikkala xalq milliy madaniyatida ham uchraydigan mehnat bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi tushunchalar bilan izohlash mumkin:

1. Barvaqt uyg‘onish va ishni o‘z vaqtida bajarish;
2. Halol mehnat qilish va haloldan rizqlanish;
3. Mehnatsevarlik omad, baxt, moddiy va ma’naviy farovonlik manbayi;
4. Mehnatsevarlik go‘zalliklar bunyodkori.
5. Mehnatsevarlik sog‘liq garovi.

Ammo mehnatsevarlikni ifodalaydigan ingliz va o‘zbek xalq maqollarining lingvomadaniy xususiyatlaridagi o‘zaro farqli jihatlarini har ikkala xalqqa tegishli bo‘lgan maqollardagi milliy taomlar, milliy hudud va milliy hayvonlar, shuningdek shu xalq vakillari eng ko‘p shug‘ullanadigan kasb-korlar misolida ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – Т.: Mehnat, 2000. – 165 b.
2. Mohammed Attia. 2004. “Common English Proverbs”. [E-Books](#).
3. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Т.:Sharq, 2005,–508 b.
4. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Хикматнома. Ўзбек мақолларининг изоҳли лугати. Т., 1990. – 45 б.
5. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika.Toshkent: “ Tavakkur avlodi”, –2020,– 76-bet.
6. Samadov Q. Maqollarimiz mohiyatiga doir. Т.: O‘zbekiston Madaniyati. – 1965.